

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

YUSUPOVA NADIRA KAYPBAEVNA

**NEFT CHIQINDILARIDAN MODIFIKATSIYALANGAN BITUMLAR
OLISHNING YANGI TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора технических (DSc) наук

Contents of the dissertation abstract of doctor (DSc) of technical sciences

Yusupova Nadira Kaypbaevna

Neft chiqindilaridan modifikatsiyalangan bitumlar olishning yangi texnologiyasini
ishlab chiqish.....3

Юсупова Надира Кайпбаевна

Разработка новой технологии получения модифицированных битумов из
нефтяных отходов29

Yusupova Nadira Kaypbaevna

Development of a new technology for production of modifying bitumen from oil
wastes57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.02.30.12.2019.K/T.35.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI

YUSUPOVA NADIRA KAYPBAEVNA

**NEFT CHIQINDILARIDAN MODIFIKATSIYALANGAN BITUMLAR
OLISHNING YANGI TEXNOLOGIYASINI ISHLAB CHIQISH**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/T878 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.ionx.uz) va «Ziynet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Xurmamatov Abdug'affor Mirzabdullayevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saydaxmedov Shamshiddin Muxtorovich
texnika fanlari doktori, professor

Fozilov Sadriddin Fayzullaevich
texnika fanlari doktori, professor

Turaev Tolib Bozorovich
texnika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona Davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.K/T.35.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "19" avgust soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77a-uy).

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (11-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77a-uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "4" avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil "4" avgustdagi 11-raqamli reestr bayonnomasi).



B.S. Zakirov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, k.f.d., prof.

D.S. Salixanova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., prof.

I.D. Eshmetov

Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., prof.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Butun dunyoda bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biri neft chiqindilarini utilizatsiya qilish muammosidir. Ko‘mish va yoqish yo‘li bilan utilizatsiya qilish, neftni to‘kish va oqova suvlarga tashlash ekologiyaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Mavjud obyektlardan foydalanish davrida resurslardan yanada samarali foydalanish uchun ikkilamchi foydalanish mumkin bo‘lgan katta miqdordagi chiqindilar to‘plangan. Neft mahsulotlari, mexanik aralashmalar va suvdan tashkil topgan murakkab fizik-kimyoviy va ko‘p komponentli barqaror aralashmalar utilizatsiya qilinganda ham qo‘shimcha ishlov berishni talab qiladi. Neftni qayta ishlash chiqindilaridan foydalanish xomashyo xarajatlarini kamaytiradi, ekologik xarajatlarni minimallashtiradi va resurslardan oqilona foydalanishga yordam beradi. Shu sababli, neft shlamlarini qayta ishlash va ulardan ikkilamchi mahsulotlar olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda neft chiqindilarini qayta ishlash va ikkilamchi mahsulotlar olish murakkab jarayon hisoblanib, bu jarayonlarni amalga oshirishda energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish b‘oyicha bir qator ishlar izlanishlar olib borilmoqda. Neft chiqindilarini qayta ishlash sohasida quyidagi ilmiy yechimlarni asoslash zarur: neft shlamlarini qayta ishlashning samarali texnologiyasini ishlab chiqish; neft chiqindilari va erituvchini aralashtirish uchun erituvchining maqbul turi va miqdorini tanlash, neft chiqindilari va maqbul erituvchini aralashtirish apparatining konstruksiyasini takomillashtirish; neft chiqindilaridan bitum olish jarayoni qanday qonuniyatlar asosida borayotganligini aniqlash, neft chiqindilaridan olingan bitumlarning sifatini yaxshilash uchun modifikatorlarning maqbul turi va miqdorini tanlash; neft chiqindilaridan olingan qurilish bitumining fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash; olingan qurilish bitumlarini modifikatsiyalash uchun modifikatorlarning optimal nisbatini aniqlash; neft shlamlaridan olingan modifikatsiyalangan bitumning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash va neft chiqindilaridan bitum olishning chiqindisiz texnologiyasini ishlab chiqishga alohida etibor berilmoqda.

Respublikada neft chiqindilarini qayta ishlash, bitumlar olish va ularning sifatini yaxshilash borasida muayyan nazariy va amaliy natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishga qaratilgan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining uchinchi y‘onalishida “Neft-gaz sohasida transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish orqali tabiiy gaz taminotida ijtimoiy himoya kafolatlari belgilangan holda bozor mexanizmlarini joriy etish...”¹ y‘onalishi bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan neft chiqindilarini qayta ishlash, mexanik q‘oshimchalardan va suvidan organik qismini ajratish, neft chiqindilaridan bitumlar olishning yangi texnologik liniyasini ishlab chiqish va olingan bitumlarning sifatini turli hildagi modifikatorlar yordamida yaxshilash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 “2022-2026 yillarga m‘oljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi t‘og‘risida”gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 2016 yil 28 sentyabrdagi PQ-2614-son “2016-2020 yillarga uglevodorod xom ashyosini chuqur qayta ishlash asosida eksportga mo‘ljallangan tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022 yil 7 iyuldagi PQ-307-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo‘lgan boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish borasida ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat ko‘rsatadi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining VII "Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.² Neft shlamini tozalash texnologiyasini takomillashtirish, neft shlamlari asosida yangi turdagi materiallar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda Oliy ta‘lim muassasalari, jumladan, University of Cincinnati, California Institute of technology (AQSh), Heriot Watt Institute of Petroleum Engineering (Buyuk Britaniya), Norwegian University of Science and Technology (Norvegiya), Japan Petroleum Institute, Tokyo National University (Yaponiya), French Petroleum Institute (Frantsiya), Ufa davlat neft texnika universiteti (Rossiya) va I.M. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz (MTU) universiteti (Rossiya) olib borilmoqda.

Neft shlamlarini suvdan va mexanik aralashmalardan tozalash, yangi turdagi materiallar olish jarayonlarini jadallashtirish va tayyorlash qurilmalarini takomillashtirishga oid jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida, quyidagi qator ilmiy natijalar olingan jumladan: neft shlamlarini qayta ishlash texnologiyasi qurilmasi ishlab chiqilgan (Qozog‘iston, Aktau shahri, Yesenov nomidagi universitet), neft shlamlarini utilizatsiya qilish texnologiyalari takomillashtirilgan (Rossiya, OAO RosNIPItermneft), Fortan va Pirol qurilmalarida neft shلامي qayta ishlangan (Rossiya, TT GROUP recysling technologies), neft shlamlari asosida kompozit materiallar olingan (Omsk davlat texnika universiteti), neft shlamini suvsizlantirish texnologiyasi ishlab chiqilgan (Rossiya, Sanoat texnologik jixozlari ishlab chiqaruvchi MIDA kompaniyasi), gidrogenizatsion usulda neft shلامي qayta ishlangan (PAO Elektrogorsk neft qayta ishlash instituti), neft shlamini qayta ishlashning yopiq sikli ishlab chiqilgan (Rossiya, Nijniy Novgorod amaliy texnologiyalar instituti), suyuq va qattiq neft shlamlarini utilizatsiya qilish uchun mobil kompleks ishlab chiqilgan (Rossiya, OOO “Montaj Injiniring”, neft shلامي

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha chet el ilmiy tadqiqotlari tavsifi
<https://science.sciencemag.org/content/220/4595/365>;
<https://www.annualreviews.org/doi/abs/10.1146/annurev.matsci.27.1.89>;
<https://engineering.tamu.edu>; <https://www.humboldt.com>; <https://www.epa.gov>;
<https://www.ifpenergiesnouvelles.com>; <https://cup.edu.cn>; <https://csu.edu.cn>; <https://www.petrobras.com.br>;
<https://www.chemistry.or.jp>; <https://sharif.edu>; <https://www.imperial.ac.uk>; <https://albertainnovates.ca> va boshqa havolalar.

asosida uglerodli adsorbtsion materiallar olingan (Xitoy, Og'ir neft laboratoriyasi), SFMLar va erituvchilar yordamida turli xil neft shlamlaridan neft ajratib olingan (Buyuk Britaniya, Reding universiteti), neft shlamlaridan neftni ajratib oluvchi tarkiblar ishlab chiqilgan (Xitoy, Szyaotun Shanxay universiteti), neft shlami asosida LiOH yordamida faollashtirilgan katalizatorlar olingan (Xitoy, China National Heavy Machinery Research Instituti), piroliz qilish orqali neft shlamini qayta ishlash kinetikasi o'rganilgan (Taipei, Taiwan University), neft shlamidan neft ajratib olishda ionli suyuqliklarning ta'siri o'rganilgan (Iroq, University of Thi-Qar), mikroemulsiyalar yordamida neft shlamidan neft ajratib olishning maqbul sharoitlari aniqlangan (Xitoy, College of Chemistry and Chemical Engineering), neft shamlari biologik usulda tozalangan (Janubiy Afrika, EPCM Holding), elektrodispergirlanishni qo'llagan holda neft shamlari qayta ishlangan (Rossiya, Penza davlat universiteti), tarkibida neft saqlagan chiqindilardan yonilg'i ajratib olish texnologiyasi ishlab chikilgan (Kanada, Memorial University of Newfoundland).

Dunyoda neft shlamlarini qayta ishlash va ulardan turli xil ikkilamchi mahsulotlar olish bo'yicha, jumladan quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: neft shlamlarini utilizatsiya qilish usullarini qo'llash, neft shlamlarini qayta ishlashga mo'ljallangan qurilmalar konstruksiyalarini takomillashtirish, neft shlami va erituvchini aralashtirish jarayoni samaradorligini oshirish va ajratib olingan fraksiyalarning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash, neft chiqindilaridan qurilish va modifikatsiyalangan bitum olish texnologiyalarini ishlab chiqish. Neft shlamlaridan ajratib olingan yengil va og'ir fraksiyalarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini baholash, suv va mexanik aralashmalar miqdorini aniqlash, organik erituvchilardan foydalanishda komponentlarning optimal nisbatlarini tanlash, neft shlami va erituvchini aralashtirishning samarali usullarini ishlab chiqish, neft shlami va erituvchini aralashtirish qurilmalarining konstruktiv parametrlarini takomillashtirish, ularning gidravlik xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, ajratib olingan fraksiyalardan sanoat mahsulotlari - bitum va modifikatsiyalangan bitumlar olishda foydalanish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Neft kimyosi, neftni qayta ishlash va neft-gazni qayta ishlash sohalaridagi keng ko'lamli muammolarni hal qilishga bag'ishlangan ishlar - Akimov G.V., Balezin S.A., Kolotirkin Ya.M., Juk N.P., Tomashov N.D., Nikitin V.I. Sokol I.Ya. Chernova G.P., Yusupbekov N.R., Salimov Z.S., Jumaniyazov M.J., Turobjonov S.M., Ikramov A.I., Qodirov X.I., Yunusov M.P., Xamidov B.N., Saydaxmedov Sh.M., Saydaxmedov E.M., Yusupov F.M., Ibodullayev A.S., Xurmamatov A.M., Ismailov O.Yu. va boshqalar tomonidan kimyo va neftni qayta ishlash sanoati jarayonlari va qurilmalarining nazariy asoslarini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan.

Ushbu olimlarning nazariy va amaliy tadqiqotlari kimyoviy texnologiya, kolloid va membrana kimyosi, neft kimyosi, neftni qayta ishlash va neft va gazni qayta ishlash jarayonlarining nazariy asoslarini rivojlantirish, jarayonlarni jadallashtirish va texnologik uskunalarni hisoblash va loyihalash asoslarini yaratishga bag'ishlangan.

Neft shlamlarining kimyoviy tarkibini, qurilish bitumlarini olish jarayonlarining gidrodinamikasini va turli konstruksiyadagi qurilmalarni o'rganish ularning gidravlik qarshiligini va texnologik suyuqliklarni haydash nasosining quvvatini hisoblashda muhim ahamiyatga ega. Biroq, qurilish bitumlarini olish samaradorligiga texnologik, rejim-konstruktiv parametrlarning ta'siri va ushbu olingan bitumlarning sifatini yaxshilash uchun optimal modifikatorlar hali to'liq o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Umumiy va noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari muvofiq "BNQIZ UK misolida neft shlamini qayta ishlash va utilizatsiya qilish texnologiyasini ishlab chiqish" va "Neft qoldiqlaridan bitum ajratib olish texnologiyasini ishlab chiqish va joriy etish" xo'jalik shartnomalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi neft chiqindilaridan modifikatsiyalangan bitumlar olishning yangi texnologiyasini ishlab chiqish, erituvchi va neft shlamini samarali aralashtirish uchun qurilmani takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kelib chiqishi turlicha bo'lgan neft chiqindilarining tarkibini aniqlash (chiqindi neft shamlari, rezervuar neft shamlari, texnik suvlarni tozalashdan hosil bo'lgan neft shamlari);

neft chiqindisi bilan aralashtirish uchun erituvchining maqbul turi va miqdorini tanlash va haydashda olingan yengil fraksiya miqdorini aniqlash;

neft chiqindisi va erituvchini samarali aralashtirish uchun apparatni takomillashtirish;

neft chiqindilaridan qurilish bitumi olish uchun texnologik liniyani ishlab chiqish;

neft chiqindilaridan qurilish bitumini olish jarayonining texnologik va rejim-konstruktiv parametrlarining ta'sirini aniqlash;

neft chiqindilaridan olingan qurilish bitumining fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash;

olingan qurilish bitumlarini modifikatsiyalash uchun modifikatorlarning optimal nisbatini aniqlash;

neft shamlaridan olingan modifikatsiyalangan bitumning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash;

ushbu texnologiyani joriy etishdan kutilayotgan yillik iqtisodiy samarani hisoblash.

Tadqiqotning obyekti sifatida neft shlami, neft shlamining turli erituvchilar bilan turli nisbatlardagi aralashmasi va neft chiqindilaridan olingan qurilish bitumi olingan.

Tadqiqotning predmetini neft shlamini qayta ishlash, neft shamlaridan qurilish bitumi olish va bitumni modifikatsiyalash jarayonlaridagi gidrodinamik va texnologik jarayonlar tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishini bajarishda tajribalarni

rejalashtirish, tajriba ma'lumotlariga statistik ishlov berish, neft shlamlarining fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash, neft shamlari va modifikatorlar tarkibini aniqlash usullari, o'xshashlik nazariyasi va modellash tirish tamoyillari, tajriba ma'lumotlariga kompyuterda ishlov berish va kimyoviy texnikada matematik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

eritilgan neft shlami tarkibidan mexanik aralashmalarni 0,05% gacha tozalash va neft shlami aralashmasining qovushqoqligini kamaytirish uchun eng mos erituvchi (yengil nafta) va neft shlamini intensiv aralashtirish uchun 20% erituvchi miqdori optimal miqdor ekanligi aniqlangan.

neft shlami va erituvchini aralashtirish uchun mo'ljallangan aralashtirgich konstruksiyasini takomillashtirish hisobiga neft shlami va erituvchini aralashtirish davomiyligi vaqti 16% gacha qisqarishi aniqlangan;

neft chiqindilaridan qurilish bitumi va modifikasiyalangan (turli modifikatorlar PTR-1, PTR-2, PTR-3) bitum olish uchun optimal rejim parametrlariga ega texnologik liniya ishlab chiqilgan;

neft shlamidan qurilish bitumi olish jarayonining maqbul sharoitlari, ya'ni oksidlanish jarayonining harorati 220°C va oksidlanish davomiyligi 180 daqiqa, kislorod bosimi 202 kPa bo'lishi aniqlangan;

neft chiqindilaridan olingan bitum BNShK-1 xususiyatlari bo'yicha amaldagi BNK-45/190 markali bitumga va modifikasiyalangan bitumlar BNShDM-60/90 va BNShM-70/30 asosiy xususiyatlari bo'yicha BND-60/90 va BN-70/30 markali bitumlarga mos kelishi isbotlangan;

rektifikatsiya kolonnasi kub qismining harorati ortishi bilan haydash jarayonida olingan fraksiyalarning zichligi va qovushqoqligi hamda bitum tarkibidagi asfaltenlar miqdori va yumshash haroratini ortishi olingan bitumning yuqori haroratlarda deformasiyalarga chidamliligini ta'minlashi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

neft shlamlarini qayta ishlash va ulardan ikkilamchi mahsulotlar olish bo'yicha ham iqtisodiy, ham ekologik nuqtai nazardan samarali texnologiyasi ishlab chiqilgan;

neft shlami va erituvchini aralashtirish jarayonida aralashmani kerakli zichlik va qovushqoqlikka ega bulishi uchun optimal erituvchi turi va miqdori aniqlangan va aralashtirish qurilmasining takomillashgan konstruksiyasi ishlab chiqilgan;

neft shlamlarini qayta ishlash va ulardan ikkilamchi mahsulot olish jarayonining optimal texnologik parametrlari aniqlangan;

olingan bitumlarning sifatini yaxshilash va ularning yaroqlilik muddatini uzaytirish uchun qo'shiladigan modifikatorlarning optimal turi va miqdori aniqlangan;

kam energiya sarflaydigan texnologik liniya ishlab chiqilgan va dissertatsiya ishi natijalaridan neftni qayta ishlash zavodi hududida ekologik vaziyatni yaxshilash imkonini beradigan sanoat sharoitida foydalanish bo'yicha tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy natijalarning o'z tajribalari va

adabiyot manbalari bo'yicha nazariy hisob-kitoblar ma'lumotlariga muvofiqligi, shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar asosida hisoblangan va loyihalashtirilgan qurilmaning muvaffaqiyatli sanoat ekspluatatsiyasi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati neft shlamlaridan qurilish bitumi olish va olingan qurilish bitumini modifikatsiyalash uchun arzon va ishlab chiqarish chiqindilari bo'lgan modifikatorlardan foydalanish hamda bitum olish jarayoni uchun maqbul gidrodinamik rejimlarga ega bo'lgan samarali texnologik liniya ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilayotgan maqbul sharoitlarda neft shamlari tarkibidan organik qismini suvi va mexanik aralashmalardan ajratish usullarini yaratish hisoblanadi. Ushbu texnologiyani qo'llash neft shamlari tarkibidagi organik qismini 49% gacha ajratish imkonini beradi va ajratib olingan organik qismi yangi turdagi mahsulotlar olishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Neft shlamlaridan modifikatsiyalangan qurilish bitumini olish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

neft chiqindilaridan modifikatsiyalangan qurilish bitumini olish texnologiyasi yordamida neft shamlarini utilizatsiya qilish texnologiyasi "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" AJning "2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar ro'yhati"ga kiritilgan (Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining 2025 yil 27 martdagi 02-03/51-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu texnologiya yordamida neft shlami aralashmasidan 36% gacha qurilish bitumi olinib, neftni qayta ishlash zavodi hududini ifloslantiruvchi chiqindilardan tozalash imkonini beradi;

neft chiqindilari tarkibidan organik qismini ajratishning maqbul erituvchi ishlatilgan texnologiyasi "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" AJda "2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar ro'yhati"ga kiritilgan (Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining 2025 yil 27 martdagi 02-03/51-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu texnologiya neft shlami tarkibidan 49% gacha organik qismni ajratib olish imkonini beradi;

qurilish bitumini modifikatsiyalashning samarali texnologiyasi "Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi" AJda "2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etiladigan istiqbolli ishlanmalar ro'yxati"ga kiritilgan (Farg'ona neftni qayta ishlash zavodining 2025 yil 27 martdagi 02-03/51-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu texnologiya *BNSHK-1* markali qurilish bitumidan *BNSHDM-60/90* markali yo'l bitumi olish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatitsiyasi. Tadqiqot natijalari 14 ta xalqaro va 28 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 66 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, shundan 1 ta monografiya "LAMBERT Academic Publishing" (Germaniya) nashriyotida, 1 ta darslik va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik

dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 21 ta maqola, jumladan, 14 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda, 5 tasi SCOPUS va Web of Science bazalarida indekslangan jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 5 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 184 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI.

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, muvofiqligi ko'rsatilgan. Dissertatsiya ishi texnologiyalari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqotlari, joriy etish bo'yicha ma'lumotlar, tadqiqot natijalarining amaliyotda qo'llanilishi, dissertatsiya natijalarining aprobatsiyasi, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mos ravishda bajarilgan,


Dissertatsiyaning "**Modifikatsiyalangan bitum olish nazariyasi va amaliyotining holati**" deb nomlangan birinchi bobida adabiyotlar sharhi keltirilgan bo'lib, unda bitumlarni modifikatsiyalash usullari, modifikatorlar sifatida ishlatiladigan moddalarning tasnifi, modifikatsiyalangan bitum olish texnologiyalarining qiyosiy tahlili bo'yicha batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Neft chiqindilari va modifikatorlarining fizik-kimyoviy xossalari o'rganish**" deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba sharoitida neft shlamlari tarkibidagi suv va yengil fraksiyalar miqdori, neft shlamlari va modifikatorlarining fizik-kimyoviy xossalari, neft shlami tarkibidagi turli xil aralashmalar miqdorini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Tajribalar davomida neft shlami turli erituvchilar bilan eritildi va rejim ko'rsatkichlari, ya'ni aralashtirish davomiyligi, tajriba harorati, oqim tezligi, erituvchi miqdori va boshqalar o'zgartirildi. Kelib chiqishi turlicha bo'lgan neft shlamlarining tarkibini aniqlash bo'yicha quyidagi natijalar olindi.



1-rasm. Texnik suvlarni tozalashda hosil bo'ladigan neft shlamlarining tarkibi.




2-rasm. Rezervuar neft shlamlari tarkibi.

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, texnik suvlarni tozalashdan hosil bo'lgan shlamlarning tarkibi 18% mexanik

aralashmalar, 42% suv va 40% organik qismdan iborat ekanligi isbotlandi.

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, o‘tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, rezervuar neft shlamlarining tarkibi 5% mexanik aralashmalar, 12% suv va 83% organik qismdan iborat ekanligi isbotlandi.




3-rasm. Shlam yig‘gichlarda to‘plangan neftshlamlarining tarkibi:

1-mexanik aralashmalar, %; 2-suv miqdori, %; 3-organik qismi, %.

3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, olib borilgan tadqiqotlar natijasida shlam yig‘uvchi neft shlamlarining tarkibi 30% mexanik aralashmalar, 21% suv va 49% organik qismdan iborat ekanligi isbotlandi.

Uch turdagi erituvchilar (yengil nafta, kerosin, reformat) 5 dan 30%gacha qo‘shilganda chiqindi neft shamlari zichligining o‘zgarishini o‘rganish bo‘yicha tajribalar o‘tkazildi.




4-rasm. Turli erituvchilarni qo‘shish miqdoriga qarab chiqindi neft shamlari zichligining o‘zgarishi.

4-rasmdan ko‘rinib turibdiki, chiqindi neft shlami tarkibiga qo‘shilgan erituvchi miqdorining 5% dan 30% gacha o‘zgarishi zichlikni 1200 kg/m^3 dan 990 kg/m^3 gacha kamaytiradi. Erituvchi qo‘shilmagan oddiy chiqindi neft shlamining zichligi 1200 kg/m^3 . 5% li erituvchi yengil nafta qo‘shilganda neft shlamining zichligi 1180 kg/m^3 ni tashkil etadi. Agar erituvchi miqdori 10% gacha yetsa, u holda neft shlami aralashmasi 1140 kg/m^3 zichlikka ega bo‘ladi. 15% erituvchi qo‘shilganda neft shlamining zichligi 1095 kg/m^3 ni tashkil etadi. Agar erituvchi miqdori 20% gacha yetsa, u holda neft shlami 1035 kg/m^3 zichlikka ega bo‘ladi. 25% erituvchi qo‘shilganda chiqindi neft shlamining zichligi 1010 kg/m^3 , agar yengil nafta erituvchisining miqdori 30% gacha yetsa, u holda neft shlami 990 kg/m^3 zichlikka ega bo‘ladi. Buning sababi shundaki, erituvchi yordamida neft shlamlarining organik qismi (masalan: og‘ir neft uglevodorodlari) eriydi va bu, albatta, ularning zichligiga ta’sir qiladi. Natijada, neft shlamlarining zichligini


kamaytirish uchun eng maqbul erituvchi yengil nafta ekanligini aytishimiz mumkin.

Shuningdek, texnik suvlarni tozalashda hosil bo'lgan neft shlamlari zichligining o'zgarishini erituvchi 5 dan 30 foizgacha qo'shilganda o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkazildi (5-rasm).



5-rasm. Texnik suvlarni tozalashda hosil bo'lgan neft shlamlari zichligining turli erituvchilarning qo'shilish miqdoriga bog'liq ravishda o'zgarishi.

5-rasmdan ko'rinib turibdiki, texnik suvlarni tozalashda hosil bo'lgan neft shlamlari tarkibiga qo'shilgan erituvchilar miqdorining 5% dan 30% gacha o'zgarishi zichlikni 1060 kg/m^3 dan 875 kg/m^3 gacha kamaytiradi. Erituvchi qo'shilmagan oddiy chiqindi neft shlamining zichligi 1060 kg/m^3 . 5% li erituvchi yengil nafta qo'shilganda neft shlamining zichligi 1020 kg/m^3 ni tashkil etadi. Agar erituvchi miqdori 10% gacha yetsa, u holda neft shlami 1000 kg/m^3 zichlikka ega bo'ladi. 15% erituvchi qo'shilganda neft shlamining zichligi 970 kg/m^3 ni tashkil etadi. Agar erituvchi miqdori 20% gacha yetsa, u holda neft shlami 930 kg/m^3 zichlikka ega bo'ladi. Texnik suvlarni tozalashda hosil bo'lgan neft shlamining zichligi 25% erituvchi qo'shilganda 900 kg/m^3 ni tashkil etadi. Agar erituvchi miqdori 30% gacha yetsa, u holda neft shlami 875 kg/m^3 zichlikka ega bo'ladi. Tajribalar davomida 5 dan 30 foizgacha erituvchi qo'shilganda rezervuar neft shlamlari zichligining o'zgarishini o'rganish bo'yicha tajribalar o'tkazildi (6-rasm).



6-rasm. Turli erituvchilarning qo'shilish miqdoriga qarab rezervuar neft shlamlari zichligining o'zgarishi.

6-rasmdan ko‘rinib turibdiki, texnik suvlarni tozalashda hosil bo‘lgan neft shamlari tarkibiga qo‘shilgan erituvchilar miqdorining 5% dan 30% gacha o‘zgarishi zichlikni 909 kg/m^3 dan 855 kg/m^3 gacha kamaytiradi. Erituvchi qo‘shilmagan oddiy chiqindi neft shlamining zichligi 909 kg/m^3 . 5% li erituvchi qo‘shilganda neft shlamining zichligi 895 kg/m^3 ni tashkil etadi. Agar erituvchi miqdori 10% gacha yetsa, u holda neft shlami aralashmasi 885 kg/m^3 zichlikka ega bo‘ladi. 15% erituvchi qo‘shilganda neft shlami aralashmasining zichligi 870 kg/m^3 ni tashkil etadi. Agar erituvchi miqdori 20% gacha yetsa, u holda neft shlami 860 kg/m^3 zichlikka ega bo‘ladi. Texnik suvlarni tozalashda hosil bo‘lgan neft shlamining zichligi 25% erituvchi qo‘shilganda 858 kg/m^3 ni tashkil etadi. Agar erituvchi miqdori 30% gacha yetsa, u holda neft shlami 855 kg/m^3 zichlikka ega bo‘ladi. Neft shamlari organik qismining kimyoviy xossalari o‘rganilgandan so‘ng, ularning kimyoviy tarkibi quyidagicha ekanligi aniqlandi: asfaltenlar 4,2-4,5% gacha, smolalar 21,0% gacha; parafin-naften uglevodorodlar 41,2% gacha; monotsiklik aromatik uglevodorodlar 4,6% gacha; bi- va tritsiklik aromatik uglevodorodlar 5,8% gacha; politsiklik aromatik uglevodorodlar 9,7% gacha.

Suyultirilgan neft shlami (13000 ml) yengil nafta bilan (80:20) nisbatda fraksiyalash uchun nasos yordamida rektifikatsiya kolonnasiga yuborildi. Olib borilgan tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Suyultirilgan neft shlamini yengil nafta bilan haydash natijalari

Haydash jarayonining davomiyligi, τ , min												
10	20	30	40	50	60	70	80	90	100	110	120	130
Rektifikatsiya kolonnasi yuqori qismining harorati t , °C												
30	38	45	56	70	74	76	80	80	82	82	82	62
Rektifikatsiya kolonnasi kub qismining harorati t , °C												
40	60	80	95	90	94	95	98	105	108	115	120	125
Olingan fraksiya hajmi V , ml												
				560	590	680	790	940	1210	1200	1150	1080
Olingan fraksiyalarning zichligi, ρ , kg/m^3												
					785	790	820			840		850
Olingan fraksiyalarning qovushqoqligi, μ , mm^2/s												
					1,15	1,26	1,59			2,04		2,26
Suyultirilgan neft shlamini haydashda olingan fraksiyalar												
						Og‘ir nafta					Kerosin	

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, umumiy aralashmadan $G_f=13000$ ml, rektifikatsiya kolonnasida $G_d=8200$ ml fraksiya haydaldi, kub qoldig‘i miqdori $G_w=4720$ ml.

$$G_f = G_d + G_w = 8200 + 4720 = 12920$$

$$13000 - 8200 - 4720 = 80 \text{ ml};$$

Neft qoldiqlarini haydash jarayonining umumiy yo‘qotilishi: 0,61% ni tashkil etadi.

$$\text{Haydash qoldig‘i } 4720 \text{ ml} = 4484 \text{ gr}$$

Qoldiq fraksiya 4720 ml + Mazut 4720 ml.

Neft shlami aralashmasini haydash qoldig'i mazut bilan 50%÷50% nisbatda aralashtirildi. Rektifikatsiya kolonnasining kub qismida xomashyo haydaldi, natijada rektifikatsiya kolonnasining yuqori qismidan chiqayotgan yengil fraksiyalarning distillyat bug'lari 5 kondensatsiyalandi va vertikal quvurli sovutgichda suv bilan sovutildi 9. Keyin sovutilgan kondensat o'lchov idishiga 12 tushdi. Natijada, og'ir gazoyl sifatida og'irroq fraksiya olindi.

2-jadval

Neft shlami va mazut aralashmasini haydash natijalari

τ , min	50	60	70	80	90	100	110	120	130	140	150	160	170	180	200
$t_{ri}^{\circ}C^{yuqo}$	36	40	42	46	48	50	55	60	65	70	75	80	85	95	100
$t_{quyi}^{\circ}C$	140	150	160	170	180	190	200	210	220	230	240	260	280	300	320
v , ml	-	-	-	-	50	70	90	110	140	165	190	120	105	70	50
ρ (kg-sm ³)	890														
v (mm ² /s)	8,25														
Fr.	Og'ir gazoyl														

Aralashmaning umumiy miqdori $G_f = 9440$ ml, 100%

Haydalayotgan aralashmaning umumiy miqdori $G_d = 1160$ ml, 12%.

Olinadigan bitum miqdori = 8280 ml, 88%.


$8280 \cdot 0,95 = 7866$ kg.

$G_f = G_d + G_w = 1160 + 8270 = 9430$

$9440 - 1160 - 8270 = 0,1$ ml;

Bitum olish jarayonining umumiy yo'qotilishi: 0,71% ni tashkil etadi.

Biz tajribalarni 20°C dan 180°C gacha bo'lgan haroratlarda o'tkazdik. Harorat ortishi bilan olingan bitumning zichligi 1100 kg/m³ dan 850 kg/m³ gacha kamaydi. Ushbu o'zgarish natijalari 4-rasmda keltirilgan.



7-rasm. BNSHK-1 qurilish bitumi zichligi va qovushqoqligining haroratga bog'liq holda o'zgarishi.

Olingan bitumlarning ko'rsatkichlari shimdirilgan qurilish bitumining parametrlariga mos keladi (3-jadval).

3-jadval

Olingan bitumning fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	GOST 22245-90 BN 60/90	Ts05767930- 263:2017 bo'yicha me'yor	BNSHK-1 neft shlamidan olingan bitumning ko'rsatkichlari	BNSHK-2 neft shlamidan olingan bitumning ko'rsatkichlari
KiSH bo'yicha yumshash harorati, °C	45 dan kam emas	ichida 38-50	49	52
Ignaning botish chuqurligi, 25S da 0,1 mm	60-90	140-220	200	130
Ignaning botish chuqurligi, 0S da 0,1 mm	Kamida 10	-	14	12
Cho'ziluvchanlik, sm, 25 °C da	Kamida 70	-	72	74
Mo'rtlik harorati, °C	Yuqori emas -6	-	-10	- 15
Ochiq tigelda chaqnash harorati, °C	240	250	245	250

Qurilish bitumiga qo'shiladigan polimerlarning fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash natijalari 4-jadvalda keltirilgan

4-jadval

R 30-00A SBS termoelastoplastining fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari


№	Hossalari	Ko'rsatkichlari	Tajriba metodlari
1	Elastikligi, %	850	GOST 270-75
2	Uzilishga mustahkamlik, MPa	20	GOST 270-75
3	Qattiqligi, 5 c	71	GOST 263-75
4	Zichligi g/sm ³	0,95	GOST 15139-69

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, polimerning elastikligi 850% ni tashkil qiladi, bu ko'rsatkich bitumning egiluvchanligini oshiradi, ayniqsa past haroratlarda, bu gidroizolyatsiya qatlamining yorilish xavfini kamaytirishga yordam beradi, 20 MPa uzilish kuchiga ega va Shor A bo'yicha qattiqligi 71 ga teng. Zichlik ko'rsatkichi 0,95 g/sm³.

Dissertatsiyaning "**Neft chiqindilaridan modifikatsiyalangan qurilish bitumlari olish jarayonlarini tadqiq qilish**" deb nomlangan uchinchi bobida neft chiqindilaridan modifikatsiyalangan bitumlar olish, turli texnologik parametrlarning ta'sirini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Qayta ishlash bo'yicha tajribalarni o'tkazishda kelib chiqishi bo'yicha turli neft shlamlaridan foydalanildi. Qayta ishlash maqsadida tajribalarimizda shlam to'plagichlardan olingan chiqindi neft shlamlaridan foydalanildi, chunki barcha

turdagi neft shlamlari ushbu omborlarda to'planadi. Qayta ishlash jarayonining maqbul rejim-texnologik parametrlari aniqlandi: neft shlamining nisbati - 80% + yengil nafta - 20%; aralashtirish harorati - 70°C; neft shlamlarining qovushqoqligini kamaytirish uchun quvurlar orqali o'qqa yengil nafta erituvchisi yuboriladi; aylanish tezligi 60 ayl/min.



8-rasm. Neft chiqindilaridan modifikatsiyalangan bitum olish texnologik liniyasi:


1 - neft shlami uchun sig'im; 2 - aralashtirgich-1; 3 - uch fazali dekanter; 4 - issiqlik almashtirgich; 5 - rektifikatsiya kolonnasi; 6 - qurilish bitumi uchun sig'im; 7 - aralashtirgich-2; 8 - modifikatsiyalangan bitum uchun sig'im; 9 - erituvchi uchun sig'im; 10 - suv uchun sig'im; 11 - neft mahsulotlari uchun sig'im; 12 - mexanik aralashmalar uchun sig'im; 13,14,15 - modifikatorlar uchun sig'imlar; 16,17,18 - modifikatorlar uchun dozatorlar; 19,20,21,22,23 - nasoslar; 24 - manometr.

Aralashtirgich neft shlami bilan to'ldirildi, neft shlamining qovushqoqligini kamaytirish uchun o'qdagi quvurlar orqali 60°C gacha qizdirilgan erituvchi yuborildi, so'ngra 50 daqiqa davomida aralashtirildi. Shundan so'ng, nasos yordamida aralashmani neft mahsulotlari, suv va qoldiq massaga ajratish uchun davriy ishlash uchun suyultirilgan massa trikanterli sentrifugaga yuborildi. Olingan neft mahsuloti fraksiyalarga ajratish uchun rektifikatsiya kolonnasiga uzatildi. Haydash jarayonida ikki turdagi neft fraksiyalarini olish mumkin, ya'ni bu fraksiyalar - yengil nafta va og'ir nafta.

Uglevodorod va neft shlami aralashmasini aralashtirish uchun aralashtirgichli 1 kub idish tanlanadi. Erituvchi uchun aralashtirgich o'qida joylashgan yumaloq teshiklarga ega bo'lib, bir vaqtning o'zida erituvchi kiritilganda aralashmalarni intensiv aralashtirish uchun ishlatiladigan maxsus uskunadir. Taklif etilayotgan aralashtirgichning asosiy texnik xususiyatlari: aralashtirgich zanglamaydigan po'latdan yasalgan, bu esa korroziyaga yuqori chidamlilikni ta'minlaydi. Aralashtirgichning diametri va balandligi 1,2 m. Aralashtirgich 6 ta parraklarga ega bo'lib, ular optimal aralashtirishni ta'minlash va erituvchini xomashyoga kiritish uchun maxsus ishlab chiqilgan. Parraklarning diametri va o'qining uzunligi - 0,9 m, parraklarning uzunligi - 0,45 m, aylanish chastotasi - 60 ayl/min.

Smolali-asfaltli moddalarni ajratib olish uchun rektifikatsiya jarayonidan so'ng deasfaltizatsiya jarayoni amalga oshirildi. Deasfaltlashda 190°C da

suyultirilgan propan qoʻllanildi. Suyultirilgan propan aralashmaga nisbatan 1:5 nisbatda kolonnaning pastki qismiga berildi. Aralashma propanning koʻtariluvchi oqimi bilan intensiv ishlov berilib, propanda eriydigan moylardan ozod qilindi. Propanda erimaydigan smolali-asfaltli moddalar kolonnaning pastki qismida tindirildi. Asfaltsizlantirish jarayonidan soʻng kompressor yordamida aralashmani havo bilan oksidlash jarayoni amalga oshirildi. Oksidlash 220°C haroratda, 2 atm.da va jarayon davomiyligi 180 minutda olib borildi. Bitum olish maqsadida 3400 ml aralashma tayyorlandi, yaʼni $G_f = 3400$ ml (turli suyultirgichlar bilan suyultirilgan neft shلامي). Oksidlanish jarayonining optimal davomiyligini aniqlash uchun 2 soatdan 6 soatgacha boʻlgan bir qator tajribalar oʻtkazildi.



9-rasm. Oksidlanish davomiyligining bitumlarning choʻziluvchanligiga va yumshash haroratiga taʼsiri natijalari.

Bitumning oksidlanish davomiyligi olingan bitumlarning sifatiga taʼsir qiluvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Natijalar 6-rasmida keltirilgan.

180°C dan yuqori haroratda bitumga modifikatorlar qoʻshildi va 300 ayl/min tezlikda mexanik aralashtirish jarayoni amalga oshirildi. Aralashtirish davomiyligi polimer komponentlari donachalarining bir jinsliligi va eruvchanligiga bogʻliq. Aralashmaning bir jinsliligi quyidagicha aniqlandi: har 20 daqiqada shisha tayoqcha yordamida uning oqimi boʻylab polimer boʻlaklari mavjudligi aniqlandi.

5-jadval

Bitumlarni modifikatsiyalash jarayonining rejim parametrlari

№	Jarayon parametrlari	Modifikator turlari					
		SBS termoelast oplasti	Ishlatilgan shinalar kukuni	TAR mahsuloti	PTR-1	PTR-2	PTR-3
1.	Jarayon harorati, °C	180	200	185	190		
2.	Jarayon davomiyligi, min.	105	115	90	95		
3.	Aralashtirish tezligi, ayl/daq	350	250	300	300		

Biz *BNSHK-1* va *BNSHK-2* bitumlarini turli haroratlarda, turli nisbatlarda koʻp turdagi modifikatorlardan (termoelastoplast SBS, yeyilgan shinalar kukuni,

tar product, PTR-1 (Polimer-5%, Tar-3%, Rezina-6%), PTR-2 (Polimer-4%, Tar-3%, Rezina-7%), PTR-3 (Polimer-3%, Tar-3%, Rezina-8%) foydalanib modifikatsiyalash tajribalarini o'tkazildi.


Neft shlamlaridan modifikatsiyalangan qurilish bitumini olish jarayoniga modifikatorlardan tashqari, apparatning rejim-konstruktiv parametrlari, ya'ni aralashtirgichli idishning geometrik o'lchamlari, aralashtirgich parraklarining soni, parraklarning aylanish chastotasi, parraklarning uzunligi va boshqalar ham ta'sir qiladi. Idishning diametri 0,6 m. 5-jadvalda aralashtirgich diametri nisbati (D/d), aylanish chastotasi va parraklar sonining aralashtirish samaradorligiga ta'siri natijalari keltirilgan.

6-jadval

Aralashtirgich konstruktiv parametrlarining aralashtirish samaradorligiga ta'siri aralashtirgich diametri $D=1,2$ m, parraklar diametri 0,9 m, aylanish chastotasi $n=60$ ayl/min.

№	Dimetr nisbatlari, m	Parraklar soni, dona	Aralashtirish samaradorligi, %
1.	1,3	2	71,88
2.		3	78,32
3.		4	86,75
4.		5	94,98
5.		6	99,85
6.		8	99,86

6-jadvaldan kórinib turibdiki, parraklar soni 2 tadan 6 tagacha oshirilganda aralashtirish samaradorligi sezilarli darajada oshgan – 71,88% dan 99,85% gacha. Biroq parraklar soni 8 tagacha oshirilganda samaradorlik deyarli o'zgarmagan (99,86%). Bu esa maksimal samaradorlik darajasiga yetilganini ko'rsatadi. Demak, diametr nisbatlari 1,3 bo'lgan sharoitda 6 ta parrak optimal hisoblanadi, chunki undan ortiq parrak qo'shish samaradorlikni sezilarli darajada oshirmaydi.



10-rasm. Tavsiya qilinayotgan aralashtirgich konstruksiyasi:

1-aralashtirgich korpusi, 2-aralashtirgich óqi, 3-aralashtirish parraklari, 4-aralashtirish parraklari.

Biz taklif etayotgan aralashtirgich oddiy aralashtirgichdan quyidagi farqlarga ega, ya'ni aralashtirgich va korpus diametrlarining optimal nisbati 1,3; parraklarning optimal soni va joylashuvi 6 dona va parraklarning qiyalik burchagi $<40^\circ$, parraklarning optimal diametrlari 0,9 metr va 0,82 metr. Aralashtirgichning balandligi 1,2 m; o'qining uzunligi 1 m. O'qda joylashgan teshikchalar soni 18 ta.

7-jadval

Bitum olish jarayonida qo'llaniladigan oddiy va taklif etilayotgan aralashtirgichning asosiy ko'rsatkichlarini qiyosiy tahlili ($t=60^\circ\text{C}$)

№	Ko'rsatkichlar	Oddiy aralashtirgich	Taklif etilayotgan aralashtirgich
1.	Aralashtirish rejimi, <i>Re</i>	1950	3800
2.	Aylanish chastotasi, <i>ayl/daq</i>	60	60
3.	Aralashtirish intensivligi, %	88,5	99,85
4.	Neft shlami aralashmasining qovushqoqligi, <i>sSt</i>	965	915
5.	Neft shlami aralashmasining zichligi, kg/m^3	1,08	0,94
6.	Aralashtirish davomiyligi, min	60	50

Tajribalar davomida jarayon davomiyligi 10 daqiqadan 60 daqiqagacha turli o'lchovlarda o'tkazildi. Aralashtirish jarayoni davomiyligining neft shlami aralashmasi zichligiga ta'siri natijalari 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

Aralashtirish jarayoni davomiyligining neft shlami aralashmasining qovushqoqligi va zichligiga ta'siri natijalari

Oddiy aralashtirgich		Taklif etilayotgan aralashtirgich	
Aralashtirish davomiyligi, daq	Neft shlami aralashmasining zichligi, kg/m^3	Aralashtirish davomiyligi, min	Neft shlami aralashmasining zichligi, kg/m^3
0	1,2	0	1,2
10	1,18	10	1,17
20	1,15	20	1,13
30	1,11	30	1,08
40	1,08	40	1,02
50	1,04	50	0,95
60	0,95	60	0,94

8-jadvaldan ko'rinib turibdiki, aralashmani oddiy aralashtirgichda aralashtirishda neft shlami aralashmasining zichligi $1,2 \text{ kg/m}^3$ dan $0,95 \text{ kg/m}^3$ gacha, taklif etilayotgan aralashtirgichda zichlik ko'rsatkichi $0,94 \text{ kg/m}^3$ gacha kamayadi. Optimal davomiylik 50 daqiqa deb tanlandi, chunki 50 daqiqa davomida aralashtirib, kutilgan natijaga erishildi. Qo'shimcha aralashtirish vaqti energiya sarfiga olib keladi.

Toshchalar yoki yirik erimagan qismlari yo'qligiga ishonch hosil qilingach,

bitum 20 daqiqa davomida aralashtiriladi. Jarayon davomiyligi 50 daqiqadan 180 daqiqagacha davom etdi. Tahlillar modifikatorlar va bitumning turli nisbatlaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Yaxshilab aralashtirilgandan so'ng, olingan modifikatsiyalangan bitumlarning xususiyatlarini o'rganish uchun namunalarni tahlillarga yuboramiz.

Ishlatiladigan modifikatorlar (termoelastoplast SBS, yeyilgan shinalar kukuni, TAR PRODUCT) olingan bitumning asosiy xossalariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, 4 turdagi PTR-1 modifikatori (termoelastoplast SBS-5%, Tar- 4%, Rezina-5%), 5 turdagi PTR-2 modifikatori (termoelastoplast SBS-3%, Tar-3%, Rezina-8%) va 6 turdagi PTR-3 modifikatori (termoelastoplast SBS-3%, Tar-5%, Rezina-6%) ishlab chiqildi.

9-jadval

Uchta turdagi kompleks modifikatorlar ta'sirida bitumning fizik-kimyoviy xususiyatlarining o'zgarishi natijalari BNSHK-1

Asosiy ko'rsatkichlar	PTR-1	PTR-2	PTR-3	GOST
KiSH bo'yicha yumshash harorati, °C	53	51	49	GOST 11506-73
Ignaning botish chuqurligi, 25°C da 0,1 mm	61	63	58	GOST 11501-78
Ignaning botish chuqurligi, 0°C da 0,1 mm	22	20	18	GOST 11501-78
Cho'ziluvchanlik, sm, 25 °C da	72	69	62	GOST 11505-75
Mo'rtlik harorati, °C	- 15	- 15	-8	GOST 11507-78
Ochiq tigelda chaqnash harorati, °C	220	230	210	33141-2014

8-jadvaldan ko'rinib turibdiki, bitumning asosiy ko'rsatkichlari *BNSHK-1* kompleks modifikator miqdoriga qarab o'zgaradi.

Ishlatiladigan modifikatorlar (eskirgan shinalar kukuni, TAR PRODUCT) olingan bitumning asosiy xossalariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, 7-turdagi RT-1 modifikatori (Rezina-8%, Tar-6%), 8-turdagi RT-2 modifikatori (Rezina-7%, Tar-7%) va 9-turdagi RT-3 modifikatori (Rezina-6%, Tar-8%) ishlab chiqildi.

10-jadval

BNSHK-1 bitumining fizik-kimyoviy xossalarini ikki turdagi kompleks modifikatorlar ta'sirida o'zgarishi natijalari

Asosiy kórsatgichlar	PT-1	PT-2	PT-3	ГОСТ
KiSh bóyicha yumshash harorati, °C	80	81	82	GOST 11506-73
Ninaning botish chuqurligi, 0,1 mm 25°C da	22	19	17	GOST 11501-78
Chóziluvchanlik, sm, 25 °Cda	7	5	3	GOST 11505-75
Mórtlanish harorati, °C	-10	-15	-8	GOST 11507-78

10-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, BNSHK-1 bitumining asosiy ko‘rsatkichlari kompleks modifikator miqdoriga qarab o‘zgaradi.

Olingan bitumlarning asosiy xossalarini aniqlash jarayonlari "Regional testing center" MCHJ laboratoriyasida olib borildi.

Sinovda quyidagi asboblardan va o‘lchash vositalaridan foydalanildi: LP 403-sonli penetrometr (08.04.2025-yilgacha 1016589-2024 metrologik tekshiruv sertifikat), LTR apparati (halqa va shar asbobi) (24.04.2025-yilgacha VA 01-02-19151 metrologik tekshiruv sertifikat), aspiratsion psixrometr (19.04.2025-yilgacha 974074-2024 metrologik tekshiruv sertifikat), 112-sonli termometr (08.04.2025-yilgacha 20070892 metrologik tekshiruv sertifikat), LYY-7 duktilometr (24.04.2025-yilgacha VA 01-02-19151 metrologik tekshiruv sertifikat).

11-jadval

Olingan qurilish va modifikatsion bitumlarning asosiy xossalari

Xarakteristika	BNS HK- 1	BNK- 45-190	BNS HK- 2	BNK- 90/130	BNSH M- 70/30	BN- 70/30	BNS HDM -60/90	BND- 60/90
Ignaning kirish chuqurligi 0,1 mm, 25 °C da	200	140-220	130	90-130	22	21-40	63	61-90
Yumshash harorati, °C	49	45-50	55	50-60	80	70-80	51	Kami da 47
Mo‘rtlik harorati, °C	-6	Kamida - 7	- 18	15 dan 20 gacha	- 18	-18 dan kam emas	- 18	-17 dan yuqori emas
Penetratsiya indeksi	2	-2 – 2	1	-1 – 1	1	-1 – 1	-1,5 – 1	-1

